



## Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> Dec., 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

### XADISLAR-DINIY-AXLOQIY DASTURLAR MANBAI



#### HADITHS ARE THE SOURCE OF RELIGIOUS MORAL PROGRAMS

#### ХАДИСЫ ЯВЛЯЮТСЯ ИСТОЧНИКОМ РЕЛИГИОЗНО- НРАВСТВЕННЫХ ПРОГРАММ

Ilmiy rahbar: Samatov Xurshid O'lmasjonovich

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent

Axborot texnologiyalar universiteti Samarqand filiali

"TTKT" fakulteti 23-06-guruh talabasi

Elektron manzil: mustafoyevaadiba@gmail.com

#### Anotatsiya:

Ushbu maqolada xadislarning inson hayotidagi ahamiyati tahlil qilingan bo'lib, xadislar, oldingi va hozirgi zamon o'rtasidagi diniy qadriyatlarning o'zgarishlari, ko'p asrlik milliy va diniy qadriyatlarimizni asrab avaylash, dunyo ilm-fani va madaniyati rivojiga ulkan hissa qo'shgan ajdodlarimizning bebaho hikmatli so'zlaridan iborat.

**Kalit so'zlar:** xadis, qadriyat, islom, xalq, Qur'on, musulmon, sunna, din, Imom al-Buxoriy, Imom at-Termiziyy.

Dastlab islom jamoasida faqat Qur'on dinshunoslikning, shu bilan birga huquqning asosi va manbai deb tan olingan. Lekin arab istilosiga davrlarida (632-751 yillar atrofida) bu manbaning o'zi talabni qondira olmagach, asta-sekin uning yoniga boshqa manba(sunna) qo'shilgan.

Arabcha sunna (as-sunna, ko'plikda sunan)-yo'l-yo'nalish, ko'chma ma'nosi - "ajdodlardan qolgan urf-odatlar", ya'ni "rivoyat", "naql", "xotira", "odat" ma'nolarini beradi.

Sunna islomda Qur'ondan kiyengi, uni to'ldiruvchi manba, islom ilohiyoti va shariatning ikkinchi asosi sifatida e'tirof etilgan. U VII asr o'rtalaridan e'tiboran yig'ila boshlagan. Unda arab xalifaligidagi sinfiy munosabat, ijtimoiy ziddiyatlar, islom mafkurasi doirasidagi ichki qarashlar o'z ifodasini topgan. Islomgacha davrdagi Arabistonda bu nom bilan odat tusini olgan axloqiy-huquqiy yo'l-yo'riqlar majmuasi-Shimoliy Arabistondagi eski jamoaning oddiy huquqlari atalgan. Sinfiy jamiyat va islom vujudga kelgandan so'ng bu eski arab majusiy sunnasi rad etilib,



## Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> Dec., 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

asta-sekin yangisi, musulmon sunnasi bilan almashtirila boshlagan. Keyin, arab harbiy yurishlaridan so‘ng Musulmon sunnasiga ko‘plab Rumo, Vizantiya va Eron huquqidan olingan xristian, zardushtiylik dinlari elementlari kirgan, lekin yana ular payg‘ambardan kelayotgan qoida va yo‘l-yo‘riqlar sifatida ifodalangan.

Musulmon sunnalari ko ‘plab xadislardan tashkil topgan. Xadis so‘zining dastlabki ma’nosi (ar.ko‘plikda “axadis” so‘zidan)-“xabar”, “hikoya”, tor ma’noda –“parcha”. Rasmiy ma’noda xadis -Muhammad so‘zлari va amaliy ishlari haqidagi rivoyatlardir. Xadis-islomda Qur’ondan keyingi muqaddas manba hisoblanadi. Bunda Muhammadning hayoti, faoliyati va ko‘rsatmalari, uning diniy, axloqiy dasturlari ham o‘z ifodasini topgan. Muhammad biror gap aytagn yoki ma’lum ishni qilib ko‘rsatgan bo’lsa, yoxud boshqalarning qilayotgan ishini ko‘rib, uni man etmagan bo‘lsa shu uch holatning har biri xadis deb atalaveradi. Ma’lumki, xadislarda islom ahkomlari, ya’ni farz, vojib, sunnat, halol, xarom, makruh, mubox kabi amal turlaridan tashqari, ahloq-odobga doir dasturlar talqin qilinadi. Unda xalq orasida keng tarqalgan ahloq-odobga oid maqol, qimmatli hikmatli so‘zlar ham qamrab oladi.

Xadislarda ibodatning tartib-qoidalari va ularni astoydil bajarishga da’vat etish bilan birga insoniy fazilatlar keng tashviq qilingan, insoniylik sha’niga tushiradigan razil xatti-harakatlar keskin qaralgan. Shuning uchun ham islomning ilk tarqalish davridanoq musulmonlar orasida xadislarga juda katta ahamiyat berilgan. Eshitgan har bir xadisni yanglishmay, asl holicha boshqalarga yetkazishga qat’iy rioya qilingan. Bu tug‘rida Muhammadning o‘zi musulmonlarni tez-tez ogohlantirib turadi. Xadis mazmuni va iborasini buzib yoki o‘zicha yangi xadis to‘qib tarqatuvchilar qattiq qoralangan. Bunday talabchanlik payg‘ambar vafotidan ancha keyingacha ham xadislarning sof holda saqlanib turishiga imkon bergen.

Muayyan bir hadis asosida huquqiy va urf-odat bo‘lgan yo‘l-yo‘riqlar, diniy marosimlar sofligi, noz ne’matlar haqidagi ko‘rsatmalar maishiy turmushdagi ahloq va odob tartib-qoidalari keltirib chiqarilgan. Qur’onning ayrim ko‘rsatmalariga amal qilish ham ko‘pincha uning ma’lum matni bilan bo‘liq bo‘lgan hadis orqali belgilanar edi. Shu bilan birga tarixiy xarakterga ega bo‘lgan; ular Muhammad yoki sahabalar tarjimai holidagi ayrim tafsilotlarni aks ettirar edi. Shu hadislar asosida VIII-IX asrlarda Muhammad va uning yaqinlari, harbiy yurishlari haqida “Yurishlar kitobi” yozilgan. Bu arab tilidagi ilk tarixiy asar va Muhammad tarjimai holi edi. Shu tariqa, hadislarning ma’lum qismi-ilk islom tarixi bo‘yicha bir manba bo‘lib xizmat qilgan, lekin bu soha alohida tadqiqotni va tafsilotni taqozo etadi.



## Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> Dec., 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

Ilk muxaddislardan Al-Xudriy bu borada bunday rivoyat qiladi. Rasululloh aytadiki, "Mendan eshitganlaringizdan hech narsani yozib yurmanglar. Kimki Qur'on oyatlaridan boshqa biror so'zni mandan eshitib yozib olgan bo'lsa, uni darhol yo'qotsin...Kimki mening haqimda so'z tarqatsa, jahannamga dohil bo'lishlikka hozirlilik ko'raversin". Darhaqiqat islom tarixidan Al-Xudriy payg'ambar hadislarini yozib borishlikka u kishidan ijozat so'raganda, rad javobini olganligi ma'lum.

Abu Kurayradan yana boshqa misol keltiriladi: "Biz hadis yozar ekanmiz, payg'ambar alayxissalom yonimizga keldi va: "Sizlar nimani yozayapsizlar?"-deb so'radi. Bizlar: "Sendan eshitgan hadislarni "-deb javob berdik. Shunda payg'ambar: "Allohnning kitobi-Qur'onдан boshqa yana qanday kitob istaysiz? Sizdan boshqa millatlar Ollohnning kitobidan tashqari yana boshqa kitoblar yozganlari uchun zalolatga ketdilarku!"-degan ekan.

Ilk yozilgan hadislar qatoriga Muhammadning xorijiy o'lkalarga-Vizantiya imperatoriga, Eron shohiga, Misr ham Xabashiston hukmdorlariga yo'llagan maktublari ham kiradi. Undan tashqari ko'plab vasiqa va hujjatlar ham bo'lganki, ular ham ilk bor yozilgan xadislardan hisoblanib, ularda islomga da'vat etish, muayyan vazifalarga tayinlash, yer va undan olinadigan soliqlar, imon va tavsiya maktublari, payg'ambara kelgan xatlarga javoblar o'rinni olgan.

Xadislarni saqlab, kelajakka yetkazuvchilar birinchi navbatda sahabalar-payg'ambarning qarindoshlari, do'stlari, yordamchilari va shogirdlari, uning o'limidan keyin asosan Madinada yashab kelganlar hisoblanganlar.

Umuman olganda "sahoba" so'zi arabcha bo'lib, "suhbat" so'zidan olingandir. Hadislardan biriga ko'ra payg'ambarni ko'rgan, u bilan muloqotda bo'lgan har bir muslimmonni "sahobiy" deyilgan. Imom Buxoriy ham shu fikrni tasdiqlagan. Ibn Xanbal ta'biricha, payg'ambar bilan bir yil, yo bir oy, yo bir kun va yoki hatto bir soat suhbat qilgan, yo bo'lmasa hayotda bir marta bo'lsa hamki uni ko'rgan muslimmon kishi sahabalardan hisoblanaveradi.

Payg'ambar vafot etganda sahabalar soni no'malum edi. Islomda qancha haqiqiy muslimon borligiga dalolat qiluvchi hadisga ko'ra, payg'ambar: "Musulmonligini so'zi va amali bilan isbotlaganlar ismlarini yozsinlar"-deb buyurganda ro'yxatdan 1500 kishining o'tganligi ma'lum bo'ladi.

O'ninchi o'rinda turuvchi sahabiy ibn Molik bo'lib, 2286 hadis rivoyat qilgan. Ibn Xanbal esa o'zining "Musnad" ida 2178 hadisni keltirgan. Ibn Molik rivoyat etgan 2210 xadisni payg'ambarning so'ngi rafiqasi Oysha ham ta'kidlagan.

Undan keyingi o'rinda ibn Abbos turadi: u 1660 xadis rivoyat qilgan.



## Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> Dec., 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

Undan keyin 1540 xadisni yozgan al-Xudriy turadi. Ibn Xanbal o‘z kitobida Jobirdan 1206, al-Xudriydan 958 xadis keltirgan.

Ibn Molikning “Muvatta”asarida 98, Abu Dovudning “Musnad” ida 218, ibn Xanbal “Musnad” ida 700 ga yaqin sahobiy rivoyat qilgan hadislar keltirilgan.

Yuqorida keltirilgan raqamlar xadislarni sahabalar rivoyat qilganligi tufayli bizning davrimizga yetib kelganligiga dalil bo‘la oladi.

Payg‘ambarning safdoshi va suhbatdoshi orasida 220 ta Abdulloh ismli sahabalar bo‘lgan. Ular orasida faqat 4 tasi Abdulloh ibn az-Zubayr, Abdulloh ibn Abbos, Abdulloh ibn Umar va Abdulloh ibn al-Amr payg‘ambar vafotidan keyin turli masalalarni hal qilishda jonkuyar bo‘lganlar va Abdullalar nomi ila mashhur bo‘lganlar.

Qur’onni o‘rganish tafsif ilmini vujudga keltirgandek, xadislarni yig‘ish va o‘rganish rivoyatlar ilmini vujudga keltirgan. Diniy adabiyotning bu ikki tarmog‘i asosida ilohiyot va musulmon diniy qonuni (shariat) vujudga kelgan. Ko‘p vaqt ilohiyot va huquq bir-biridan aniq ajratilmagan.

Xadislar tarixini ilmiy-taqnidiy o‘rganish sohasida venger olimi Goldser va golland olimi Snuk Xyurgronening xizmatlari kattadir.

Hamma rivoyatlar ham payg‘ambarning so‘zlari yoki amaliy ishlariga tayanavergan emas. Unga borib taqaluvchi xadislar marfu deyiladi. Sahobalar so‘zlari yoki amaliy ishlariga asoslanuvchi rivoyatlar maukuf ( ar “to‘xtatilgan” ) deb nomlangan. Faqat ta‘bilar, yani sahabalarning birinchi shogirdlariga borib taqaluvchi rivoyatlar maktu ( ar. “kesik”, “kesilgan” ) deyiladi. Shunday rivoyatlar (mursal hadislari kabi ayrim dinshunos-qonunshunoslar tomonidan qabul qilingan, boshqalari rad etilgan.

Bizga qadar yetib kelgan shunday xadislardan nisbatan mashhurlari 2 ta. Biri Malik ibn Anas (795 yil. Vafot etgan) ning “Al-Muvatta” (“tekis so‘qmoq”) asaridir. To‘plamda 1700 xadis bo‘lib, bularni u ishonchli deb topgan. Ikkinci to‘plam ibn Xanbalning “Musnad” asari bo‘lib, 3000 hadisdan iborat.

Aziz vatandoshimiz buyuk muhaddis Abu Iso Muhammad ibn Iso bin Savra bin Muso bin al-Zaxxoh az-Zarir at-Termiziyy al-Buxoriy xadisshunos olim hisoblanadi. Ul zot islam olamidagi mashhur muhaddislardan biri bo‘lib, xadis, tarix va boshqa ko‘plab ilmlar sohasida asarlar yozgan.

Tarixiy ma’lumotlarga qaraganda, Imom Termiziy 824 yili Termiz shahrida tug‘ilgan. Xadis o‘rganish maqsadida u 850 yildan boshlab Islom dunyosining turli shahar va diyorlariga safar qilgan.



## Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> Dec., 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

Manbalarda ko'rsatilishicha, Imom al-Buxoriy Imom at-Termiziyning xadislarini sinchiklab o'rganishdagi nodir qobiliyati, taqvodagi ustunligini tan olgan va bunga shohidlik bergen.<sup>1</sup>

Imom at-Termiziyning "Jome as-Sahih" kitoblariga ibn Arabiy nomi bilan mashhur bo'lgan imom al-Ambili "Oridat al Ahvaze fisharhi sunani at-Termiziy", Jaloliddin Suyutiy esa "Qatal-muttozi alo jome at-Termiziy" degan sharh yozganlar.

Imom Termiziy yuksak ahloqiy va insoniy fazilatlarga ega, yuksak zakovat va zehn sohibi, fanning turli sohalarida atroflicha chuqur va yetuk bilimga ega bo 'lган kishi edi. Turmushda alohida ajralib turar, kam taom iste'mol qilib, ko'p mehnat va ijod qilar, axloqsizlikni qoralar edi.

Umr bo'yi qilingan uzluksiz ilmiy izlanishlar, mutolaa, asarlar yaratish mashaqqati, hayotiy uqubatlar o'z asoratini ko'rsatgan, umrining oxirgai yillariga kelib ko'zlar ojiz bo'lib qolgan va 892 yili 70 yoshida Termizda vafot etgan.

Hozirgi vaqtida at-Termiziyning maqbarasi Sherobod tumani markazi yaqinidagi qishloq qabristonida qad ko'tarib turibdi. Qadim qadimdan musulmonlar uchun bu yer ziyoratgoh hisoblanadi.

Bobokalonimiz at-Termiziyning buyukligi shundaki, u o'z kitoblarida asosan shu g'oyani tarannum etgan: "Inson insonning do'sti, birodarlaridir. Inson insonga zulm ham qilmasligi muhtoj damlarda inson insonni tashlab ham qo'ymasligi kerak". Xuddi shuning uchun ham jahon xalqlari bu ma'rifatparvar zotni necha yillar davomida e'zozlab kelyapti.

Xulosa qilib aytish joizki, qadimdan o'zbek xalqi xadisshunos olimlarga boy hisoblanadi. Bu kabi yurtdoshlarimizga misol qilib Abu Abdulloh Muhammad Ibn Ismoil Al-Buxoriy, Abu iso Muhammad Ibn Iso At-Termiziylarni kiritishimiz mumkin. Xadislar asosan xadisshunos olimlarning qilgan ishlari, amallari, gaplaridan iboratdir. Shuning uchun ham xadis Qur'onidan keying o'rinda turuvchi muqaddas manba hisoblanadi. Ular o'zining xadislarida ota-onaga qanday hurmatda bo'lish, farzandlarning ota-onasi oldidagi burchi, ona yurtiga qanchalik muhabbatda bo'lishi kerakligi va odob ahloq qoidalarini ilgari suradi.

Xadislar insonni faqat yaxshilikka yetaklaydi. Shunday ekan xadislardagi amallarni bajarish har bir musulmon kishining oldidagi burchi hisoblanadi.

<sup>1</sup> http://www.bukhari.uz-Imom Buxoriy xalqaro markazi veb-sayti<sup>1</sup>

# **Proceedings of International Educators Conference**

**Hosted online from Rome, Italy.**

**Date:** 25<sup>th</sup> Dec., 2023

**ISSN:** 2835-396X

**Website:** econferenceseries.com

## **Foydalanimgan adabiyotlar ro'yxati**

1. <https://sammuslim.uz>
2. <https://islom.ziyouz.com>
3. <http://www.bukhari.uz>-Imom Buxoriy xalqaro markazi veb-sayti
4. <http://www.buxoriy.uz>-Toshkent islom instituti veb-sayti
5. Samatov, K. (2016). Issues Naqshbandi teaching peace and harmony in society. *Theoretical & Applied Science*, (2), 175-179.
6. Ulmasjonovich K. S. Mystical and philosophical foundations of human interaction. – 2021.